

## SHOLIPOYALAR ALGOFLORASINING TAKSONOMIK TAHLILI.

(Farg'ona viloyati Bag'dod tumani hududi misolida)

Farg'ona davlat universiteti.

b.f.f.d (PhD), dotsent. **M.P.Yuldashova**,

Farg'ona davlat universiteti.

2-bosqich magistranti. **D.S.Abdug'aniyeva**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, Farg'ona viloyati Bag'dod tumani hududidagi sholipoyalar algoflorasi o'rganildi. Unga ko'ra, tadqiqot uchun belgilab olingan hududlardagi sholipoyalarda suvo'tlarining 102 ta tur va tur xillari (79 ta tur, 13 ta variatsiya va 10 ta forma) ning uchrashi aniqlandi. Suvo'tlari orasida tur va tur xillarining soni jihatidan Bacillariophyta (49), Cyanophyta (39), Chlorophyta 11) va Euglanophyta (1), Xanthopyta (1), Chrysophyta (1) bo'limlariga mansub turlar uchradi.

**Tayanch iboralar:** algoflora, taksonomika, tur va tur xillari, suv havzalari, sholipoyalar, tabiiy muhit, suvo'tlar.

**Abstract:** In this article, the algal flora of rice paddies in the Bagdad district of the Fergana region was studied. According to it, 102 species and subspecies of algae (79 species, 13 variations and 10 forms) were found in rice paddies in the areas designated for the study. Among the algae, species belonging to the following divisions were found in terms of the number of species and subspecies: Bacillariophyta (49), Cyanophyta (39), Chlorophyta (11) and Euglanophyta (1), Xanthopyta (1), Chrysophyta (1).

**Key words:** algal flora, taxonomy, species and subspecies, water bodies, rice paddies, natural environment, algae.

**Kirish:** Hozirgi vaqtda sholini oziqlantirishda katta miqdorda mineral o'g'itlar, begona o'tlarga qarshi zaharli gerbitsidlar ishlatilmoqda. Bu esa sholi yetishtiriladigan hududlarning tabiatiga, ekologiyasiga va mahsulot sifatiga keskin salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun ham sholi hosilini kimyoviy o'g'itlarsiz yetishtirish yoki biologik o'g'itlarni qo'llab, ekologik toza sholi mahsulotlari yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish, tuproq unumdorligini oshirish va strukturasi yaxshilash hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bu o'rinda, suv havzalari orasida alohida ahamiyatga ega bo'lgan

sholichilikda suvo'tlar turlarga boyligi bilan muhim hisoblanadi. Shunga ko'ra, sholichilik algoflorasining tur tarkibini aniqlash, sholichilik algoflorasini farqlanishini ilmiy asoslash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Material va metodlar.** 2022-2024 yilgi izlanishlar davomida Bog'dod tumanida o'rganilayotgan xududlar sholipoya suv maydonlaridan suv kirish, suv chiqish va o'rta qismlarga bo'lindi va joylardan 30 dan ortiq algologik namunalar yig'ildi. Algologik namunalarni yig'ish davrida suv va havo harorati, sholipoyalarning kengligi, suvning rangi va tiniqligi, shuningdek, ifloslantiruvchi manbalar, suvda erigan kislorodning miqdori va suv muhiti (rN) ham hisobga olindi.

Bentos va perifiton suvo'tlarining namunalarni yig'ishda skalpel, lineyka va suv batometridan foydalanildi.

Sholipoyalarning qirg'oqlariga yopishib o'sganlarini, suv yuzasida tuproqqa yopishib, o'sib turgan ipsimon, yashil, ko'k-yashil, jigarrang plyonka hosil qilgan suvo'tlarini bevosita qo'l bilan, 1 – 10 sm<sup>2</sup> maydondagi joydan skalpel, pichoqlarda qirqib va qirib oldik. Ularning uzunligini shu joyda lineyka yordamida o'lchadik. Namunalarni shisha idishlarga solib, sholichilik suvidan quyib, ustiga 3 – 4 tomchi 4% li formalin eritmasidan tomizib, fiksatsiya (konservatsiya) qildik. Namunalarning bir qismini fiksatsiya qilmay tirik holda laboratoriyaga olib keldik. Laboratoriya sharoitida olib kelingan algologik namunalardan preparatlar tayyorlab, mikroskop ostida suvo'tlarining turlar tarkibini aniqladik[4;5]. Namunalardan preparat tayyorlash uchun dastlab Cyanophyta, Chrysophyta, Xanthophyta, Euglenophyta, Chlorophyta suvo'tlari, so'ngra namunalarni turli aralashmalarda tozalab, Bacillariophyta suvo'tlarini aniqladik. Bacillariophyta suvo'tlaridan doimiy preparatlar asosan qizdirish – kuydirish metodi asosida tayyorlandi [1;2;4]. Formalindan yuvilgan material buyum oynasiga yupqa qilib surtilib, 23 soatga elektr plitkaga qo'yiladi va doimiy preparatlar V.S.Sheshukova usulida tayyorlanadi. Namunalarni uzoqroq mudatda saqlash uchun buyum oynachasining atrofiga glitserin surtib qo'ydik[4;5].

Algofloradagi turlar tarkibini, ularning taksonomik o'rmini aniqlashda suvo'tlari aniqlagichlari yordamida aniqlanildi[4;5].

**Tadqiqot natijalari.** Bag'dod tumani hududidagi sholipoyalar algoflorasi turlar tarkibining taksonomik tahlili kanal algoflorasi birmuncha o'ziga xos tarkibga egaligini ko'rsatdi. Suvo'tlarining 6 ta bo'lim, 12 ta sinf, 15 tartib, 31 ta oila, 47 ta turkumga xos 102 ta tur va tur xillari (63 - tur, 31 - variatsiya, 8 - forma) aniqlandi.

Ulardan Cyanophyta - 39, Chrysophyta - 1, Bacillariophyta - 49, Xanthophyta - 1, Euglenophyta - 1, Chlorophyta - 11 ta tur va tur xillarini tashkil etdi.

**Bag'dod tumani hududida tadqiqot jarayonlarida aniqlangan  
algofloraning taksonomik tahlili**

№	Bo'lim	Sinf	tartib	Oila	Turkum	Tur
1	Cyanophyta	4	5	10	15	39
2	Chrysophyta	1	1	1	1	1
3	Bacillariophyta	2	3	13	21	49
4	Euglenophyta	1	1	1	1	1
5	Xanthophyta	1	1	1	1	1
6	Chlorophyta	3	4	5	8	11
	Jami:	12	15	31	47	102

Bag'dod tumani hududidagi sholipoyalar suvo'tlarining taksonomik tuzilishiga ko'ra, suvo'tlarining bo'limlari ichida Bacillariophyta - 49 ta suvo'tlari yetakchilik qiladi va umumiy tur va tur xillari (40 – tur, 8 – variatsiya, 1 - forma) sonining 48,04 % ini tashkil etadi.

**Hududlarda aniqlangan algofloraning bioxilma-xilligi**

№	Bo'lim	Tur	var	for	Jami tur va tur xillari	Uchrash darajasi%
1	Cyanophyta	28	2	9	39	38,24%
2	Chrysophyta	1	-	-	1	0,98%
3	Bacillariophyta	40	8	1	49	48,04 %
4	Euglenophyta	-	1	-	1	0,98%

5	Xanthophyta	1	-	-	1	0,98%
6	Chlorophyta	9	2	-	11	10,78%
	Jami:	79	13	10	102	100 %

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Эргашев А.Э. Определитель протокковых водорослей Средней Азии. Кн. I, II. (Тетраспоровые Tetrasporales и Хлорококковые – Chlorococcales). – Ташкент: Фан, 1979 а, б. – 344 с; 384 с.
2. Музафаров А.М. Флора водорослей водоемов Средней Азии. -Ташкент: Изд-во Наука. 1965. - 580 с.
3. Музафаров А.М., Эргашев А.Э., Халилов С. Определитель синезеленых водорослей Средней Азии. Кн. 11. -Ташкент: Фан, 1988 а. - С. 406-815.
4. Мошкова Н.О. Определитель пресноводных водорослей Украинской ССР. Вып.6. Улотриксые и кладофоровые водоросли. – Киев: Наукова думка, 1979. – 500 с.
5. Определитель пресноводных водорослей СССР. Вып. I. 1951; II. 1953; III. 1954; IV. 1951; VI. 1954; VII. 1955; VIII. 1959; X.(1) 1986; XI. 1982; XII.
6. Юлдашова М., Мўйсинова Х., Каримжонова Г., & Абдуғаниева Д. (2023). Фарғона вилояти водил қишлоғида жойлашган кўл альгофлорасининг таксономик таҳлили. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(16 SPECIAL), 549–552. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5035>

Research Science and  
Innovation House

